

## SHAYBONIY HUKMDOR ABDULLAXON II DAVRIDA KARMANA NUFUZINING ORTISHI

**Botirov Nodir Sadir o'g'li**

**Mustaqil tadqiqotchi**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17490302>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Shayboniylar sulolasi vakillaridan biri bo'lmish Abdullaxon II ning Buxoro xonligida, xususan, Karmanadagi faoliyati va uning davrida amalga oshirilgan ishlar to'g'risida qisqacha ma'lumotlar keltirib o'tiladi. Shuningdek, uning oqilona siyosati xalqning hurmatiga, mamlakat obodligi va farovonligiga xizmat qiladi. Karmana shayboniylar davrida muhim hudud hisoblanib, o'sha davrning yirik shaharlari bo'lmish Samarqand va Buxoroni bog'lab turganligi ham uning nechog'lik muhimligidan dalolat beradi. Abdullaxon XVI asrdagi qurilishlar, mamlakat rivojidagi sa'y-harakatlar tashabbuskori ekanligi maqolada aks ettirilgan.

**Kalit so'zlar:** Karmana, arkon, madrasa, strategik, tim, band, kanal, suv ayirg'ich, sardoba, karvonsaroy, ravoq.

**KIRISH.** Navoiy viloyati boy madaniy va tarixiy yodgorliklari bilan ham alohida ajralib turadi. Ayniqsa, Karmana shahri, Qosim shayx maqbarasi, Raboti Malik yodgorligi, Qizilqum bag'ridagi tosh o'rmon, Sarmishsoydagi toshga o'yilgan qadimiy rasmlar bularning barchasi viloyatning ko'hna tarixi va madaniyatidan dalolat beradi. [1] Karmananing qadimiy tarixiy hudud ekanligi ko'plab manbalarda ham uchraydi. Bunga misol tariqasida Narshaxiyni "Buxoro tarixi" asarini keltirish mumkin, unda Karmana atamasi hamda uning aholisi haqida ma'lumotlar mavjud. Ammo, Karmananing strategik salohiyati Buxoro xonligi davrida ancha yuqori bo'lganligi shayboniylar sulolasi hukmronligi davriga to'g'ri keladi.

**ASOSIY QISM.** Shayboniy hukmdorlar orasida asosiy faoliyati Karmanada o'tgan, eng katta ta'sirga ega bo'lgan hukmdorlardan biri Abdullaxon II (1534-1598) edi. XVI asrda Shayboniylar sulolasi hukmronligi yillarida Karmanada kechgan tarixiy voqealar, Karmananing sulola ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy hayotida tutgan o'rni haqida Mirza Salimbek ning asarida tarixiy ma'lumotlar keltiriladi. [2] Jonibek, Iskandar, Abdulla singari sultonlar faoliyatining ko'p qismi aynan ushbu hududda o'tgan. Ayniqsa, Abdullaxon davrida Karmananing nufuzi ortgan. Otasi Iskandar sultondan bu hudud unga meros bo'lib o'tganligi sababli, bu hududga e'tibori doim yuqori bo'lgan. Abdullaxonning Karmanaga e'tibori bejiz emasdi. Chunki u shu yurt farzandi bo'lgan. Otasi, bobosi Karmanada yashagan va saltanat yuritgan. [3]

Fikrimizni Hofiz Tanish al-Buxoriyning quyidagi ma'lumoti yana bir marta isbotlaydi: "Abdullaxon Balxdan qaytib davlatining poytaxti Buxoroda biroz to'xtagandan so'ng, jami arkoni davlatlari va a'yonlari bilan tug'ilgan yeri va asl vatani bo'lgan Karmanaga birodari Ibodulla Sultonni yuboradi".[4]

Buxoro, Samarqand, Toshkent, Navoiy, Jizzax, Surxondaryo, Qashqadaryo viloyatlarida saqlanib qolgan o'nlab imoratlar Abdullaxonning bevosita ko'rsatmasiga asosan qurilgan. Buxorodagi Abdullaxon madrasasi, Jo'ybor xo'jalariga atab qurilgan masjid, xonaqoh, Gavkushon, yangi Chorsu, Abdullaxon timi, Toshkentdagi Ko'kaldosh madrasasi, Nurotadagi Chashma majmuidagi Tosh masjid, Karmanadagi Qosim Shayx xonaqohi, Charmgar chorbog' yonidagi "Abdullaxon uyi", 1582-yili (hozirgi "Sementchi sihatgohi yonida) Zarafshon daryosi ustida qurilgan ko'pri shular jumlasidandir [5]

Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, XVI asrda Karmanada "Chorminor" deb atalgan katta masjidi jome (ilgari Navoiy "Matlubotsavdo idorasi o'rnida) va Toshhammom (Karmana dehqon bozori yonida) bo'lgan. XVI asrdagi me'moriy qurilishlarning ko'pchiligi Abdullaxon nomi bilan bog'liqligini hisobga olsak, bu imoratlar ham uning davrida qurilganligi ma'lum bo'ladi. [6]

Ilm-fan va madaniy hayotga ham katta e'tibor bergan, aholining ijtimoiy hayoti mamlakatning iqtisodiy ahvoli bilan bog'liqligi sababli ko'plab sug'orish inshootlari, savdo rastalari, karvonsaroylar, sardobalar, me'moriy obidalar qurilishiga boshchilik qilgan. Bunga quyidagilarni keltirib o'tish mumkin: Zarafshon daryosida qator suv ayirg'ichlar, ko'plab suv omborlari, Nurota hududida qurdirgan Abdullaxon bandi, 1577-yilda qurilgan Abdullaxon timi (usti yopiq bozor), Karmanadan G'ijduvonga boradigan yo'lda 18 ravoqdan iborat ko'prik, Sangzordan Jizzaxga qadar Tuyatortar kanali, Vaxsh, Murg'ob, Amudaryo suv imkoniyatlaridan foydalanish uchun olib borilgan ishlari singari ko'plab misollarni keltirish mumkin. Harbiy yurishlarda esa doim ustoz karmanalik Qosim shayx Azizonning maslahatiga quloq tutgan, uning so'zlari Abdullaxon uchun qonun darajasida edi, shu sababli ko'plab janglarda muvaffaqiyatlarga erishgan. Ustoziga hurmati cheksiz bo'lgan Abdullaxon uning vafotidan so'ng unga atab Karmanada maqbara qurdiradi.

**XULOSA.** Shayboniy hukmdor Abdullaxon II Karmananing siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida alohida iz qoldirdi. Buxoro xonligi har tomonlama rivoj topdi, Karmana ko'rkam va obod, strategik muhim ahamiyatga ega manzillardan biriga aylandi. Umuman olganda, Abdullaxon II davrida Buxoro xonligining har tomonlama rivoj topganligi uning mamlakatda olib borgan siyosiy faoliyatidan ham ma'lum. Ko'plab qurilish ishlari, obodonchilik, ilm-fan, madaniyat taraqqiy etishida uning hukmdorlik salohiyati muhim o'rin tutadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sh.Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. T. "O'zbekiston". 2017.119-b
2. Mirza Salimbek. "Tavorixi mutaqaddimin va mutaxxirin" Fors-tojik tilidan N.Yo'ldoshev tarjimasini. Buxoro, 2003. 269-b
3. O.Xaitova, X.Qurbonov Karmana tarixi. T., "MASHHUR-PRESS". 2018.55-b.
4. Hofiz Tanish al-Buxoriy. Abdullanoma."Sharafnomayi shohiy" Birinchi kitob-T.,19. 169-b
5. Axmedov.B.A. Istoriko-geograficheskaya literature Sredniy Azii XVI-XVIII vv.
6. Pis'menniy pamyatniki. T.,1985.: Qarang: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 1-jild. – T., 2000.33-34-b
7. Hotamov A, Xalilov Sh. Yillar sadosi. – T.,1995.28-b